O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta’limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA’LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali

2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: *Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov*
Mas'ul muharrir: *Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov*
Mas'ul muharrir o'rinbosari0: *Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedogogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev*

T A H R I R H A Y ' A T I

Aniq va tabiiy fanlar: *k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.*
Texnika fanlari: *t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.*
Ijtimoiy-gumanitar fanlar: *s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d, prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.*
Pedagogika fanlari: *p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d.,dost. M.Asqarova, PhD S.Jamoldinova, PhD, dots. M.Asranboyeva.*
Filologiya fanlari: *fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD.,dots. P.Lutfullayev, PhD., dots. M.Yakubbayev.*

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.
Pochta indeksi: 160136, ***Faks:*** (0369) 227-27-21,
Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi ***Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi*** *asosida chop etiladi. Jurnal* ***Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha*** *falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.*

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2026

O‘QUV-MASHQ BOSQICHIDAGI BASKETBOLCHILARDA INDIVIDUAL VA JAMOAVIY HARAKATLARNING O`YIN NATIJADORLIGIGA TA’SIRI

Egamberdiyeva Nazira Adhamjon qizi
Namangan Davlat Pedagogika Inistituti,
Jismoniy madaniyat va sport kafedrasi Stajyor-o`qituvchisi
E-mail:egamberdiyevanazira96@gmail.com

Annotatsiya.*Mazkur maqolada o‘quv-mashq bosqichidagi basketbolchilarda individual va jamoaviy harakatlarning o‘yin natijadorligiga ta’siri o‘rganildi. Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil hamda matematik-statistik usullardan foydalanildi. Basketbolchilarning individual texnik-taktik harakatlari (dribling, uzatma va savatga tashlash aniqligi) hamda jamoaviy harakatlari (o‘zaro hamkorlik, kombinatsion o‘yinlar va tezkor hujumlar) samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari individual va jamoaviy harakatlarni integratsiyalashgan holda rivojlantirish o‘yin natijadorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari o‘quv-mashq bosqichidagi basketbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar.*Basketbol, o‘quv-mashq bosqichi, texnik-taktik tayyorgarlik, individual harakatlar, jamoaviy harakatlar, o‘yin natijadorligi, yosh basketbolchilar, sport mahorati.*

THE IMPACT OF INDIVIDUAL AND TEAM ACTIONS ON GAME PERFORMANCE AMONG BASKETBALL PLAYERS AT THE TRAINING STAGE

Abstract. *This article examines the impact of individual and team actions on game performance among basketball players at the training stage. The study employed pedagogical observation, comparative analysis, and mathematical-statistical methods. The effectiveness of the players’ individual technical-tactical actions (dribbling, passing, and shooting accuracy) as well as their team actions (cooperation, combination plays, and fast breaks) was analyzed. The results indicate that developing individual and team actions in an integrated manner significantly enhances game performance. These findings hold practical significance for improving the technical-tactical preparation of basketball players at the training stage.*

Keywords*: Basketball, training stage, technical-tactical preparation, individual actions, team actions, game performance, young basketball players, sports proficiency.*

THE IMPACT OF INDIVIDUAL AND TEAM ACTIONS ON GAME PERFORMANCE AMONG BASKETBALL PLAYERS AT THE TRAINING STAGE

Abstract. *This article examines the impact of individual and team actions on game performance among basketball players at the training stage. The study employed pedagogical observation, comparative analysis, and mathematical-statistical methods. The effectiveness of the players’ individual technical-*

tactical actions (dribbling, passing, and shooting accuracy) as well as their team actions (cooperation, combination plays, and fast breaks) was analyzed. The results indicate that developing individual and team actions in an integrated manner significantly enhances game performance. These findings hold practical significance for improving the technical-tactical preparation of basketball players at the training stage.

Keywords: *Basketball, training stage, technical-tactical preparation, individual actions, team actions, game performance, young basketball players, sports proficiency.*

KIRISH

Hozirgi kunda basketbol dunyoning eng ommabop va raqobatbardosh sport turlaridan biri sifatida jadal rivojlanib bormoqda. Zamonaviy basketbol o‘yinining yuqori sur’ati, texnik va taktik harakatlarning murakkablashuvi sportchilardan yuqori darajadagi jismoniy, texnik hamda taktik tayyorgarlikni talab etadi. O‘yin natijadorligi ko‘p jihatdan basketbolchilarning individual texnik mahorati va jamoaviy hamkorlik darajasiga bog‘liq bo‘lib, ushbu omillar musobaqa faoliyatining muhim tarkibiy qismlaridan hisoblanadi [1, 2].

Yosh basketbolchilarni tayyorlash tizimida texnik-taktik tayyorgarlik sifatini oshirish, sport zaxirasini shakllantirish hamda musobaqa faoliyati samaradorligini yuksaltirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu bois o‘quv-mashq bosqichidagi sportchilarning individual va jamoaviy harakatlarini takomillashtirish masalasi sport pedagogikasi hamda sport nazariyasining dolzarb yo‘nalishlaridan biri sanaladi [3].

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, basketbolchilarning individual texnik harakatlari va jamoaviy taktik faoliyatining o‘yin natijadorligiga ta’siri turli tadqiqotlarda yoritilgan. Biroq mavjud ilmiy ishlarda ushbu omillarning o‘quv-mashq bosqichidagi basketbolchilarda o‘zaro bog‘liqligi hamda musobaqa faoliyatiga kompleks ta’siri yetarli darajada o‘rganilmagan. Mazkur holat ushbu yo‘nalishda qo‘shimcha ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi o‘quv-mashq bosqichidagi basketbolchilarda individual va jamoaviy harakatlarning o‘yin natijadorligiga ta’sirini kompleks baholash hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashdan iborat.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tadqiqotning maqsadi o‘quv-mashq bosqichidagi basketbolchilarda individual va jamoaviy harakatlarning o‘yin natijadorligiga ta’sirini aniqlash hamda ularni rivojlantirishning samarali usullarini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Basketbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligi va musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish masalalari sport nazariyasi va amaliyotida keng tadqiq etilgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Zamonaviy basketbolda yuqori natijalarga erishish individual texnik mahorat va jamoaviy taktik harakatlarning uyg‘un rivojlanishiga bevosita bog‘liq bo‘lib, mazkur masala ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan.

A.Ya. Gomelskiy basketbolda jamoaviy hamkorlikning ahamiyatini asoslab, o‘yin samaradorligi individual mahorat bilan bir qatorda jamoaviy kombinatsiyalarni samarali qo‘llashga ham bog‘liqligini ta’kidlagan [4]. Muallifning fikricha, tezkor hujumlar, himoyadagi o‘zaro sug‘urtalash va kombinatsion harakatlar zamonaviy basketbolda g‘alabani ta’minlovchi muhim omillardan hisoblanadi.

H.Wissel basketbolchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish masalalarini o‘rganib, dribling, uzatma va savatga tashlash aniqligining o‘yin natijadorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini qayd etgan [5]. Shuningdek, muallif yosh basketbolchilarda o‘yin vaziyatlarini tez baholash va optimal qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligini alohida ta’kidlaydi.

D.Oliver basketbol o‘yinlarini statistik tahlil qilish orqali individual ko‘rsatkichlar va jamoa natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlagan [6]. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, savatga tashlash aniqligi, assistlar soni va to‘p yo‘qotishlar ko‘rsatkichi jamoa natijadorligini belgilovchi asosiy mezonlar hisoblanadi.

J.Krause, D.Meyer va J.Meyer tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda basketbolchilarning individual texnik mahorati jamoaviy taktik harakatlar bilan uyg‘unlashgandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkinligi asoslangan [7].

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Mualliflar mashg‘ulot jarayonida kichik tarkibli o‘yinlardan (1×1, 2×2, 3×3) foydalanish texnik va taktik tayyorgarlikni birgalikda rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatganlar.

M.Hughes va I.Franks sport o‘yinlari samaradorligini tahlil qilish bo‘yicha ilmiy ishlarida jamoaviy harakatlarning natijadorlikka ta’sirini o‘rganib, assistlar, samarali hujumlar va himoyaviy harakatlar musobaqa natijasini prognoz qilishda muhim ko‘rsatkichlar ekanligini aniqlaganlar [8].

T.Bompa va C.Buzzichelli sportchilarni uzoq muddatli tayyorlash nazariyasida texnik-taktik tayyorgarlikni bosqichma-bosqich rivojlantirish zarurligini asoslab berganlar [9]. Ularning fikricha, o‘quv-mashq bosqichida individual va jamoaviy harakatlarni parallel ravishda shakllantirish keyingi sport mahoratining poydevorini yaratadi.

R.Martens yosh sportchilar bilan ishlash metodikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida mashg‘ulotlarning o‘yin faoliyatiga yaqinlashtirilgan shakllari sportchilarning motivatsiyasi va o‘yin samaradorligini oshirishini ta’kidlagan [10]. Muallif ayniqsa kichik tarkibli o‘yinlar orqali qaror qabul qilish tezligi va taktik fikrlashni rivojlantirish mumkinligini qayd etadi.

F.A.Kerimov sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar metodologiyasiga oid ishlarida sportchilar tayyorgarligini baholashda pedagogik kuzatuv, test sinovlari va statistik tahlil usullaridan kompleks foydalanish zarurligini asoslab bergan [11].Bu yondashuv sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligi va musobaqa faoliyatini obyektiv baholash imkonini beradi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, aksariyat tadqiqotlarda individual texnik harakatlar yoki jamoaviy taktik harakatlar alohida o‘rganilgan. Biroq o‘quv-mashq bosqichidagi basketbolchilarda individual va jamoaviy harakatlarning o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning o‘yin natijadorligiga kompleks ta’siri yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu sababli mazkur masalani eksperimental asosda o‘rganish va

samarali pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot o‘quv-mashq bosqichidagi basketbolchilarda individual va jamoaviy harakatlarning o‘yin natijadorligiga ta’sirini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, pedagogik eksperiment, qiyosiy tahlil, test sinovlari, matematik-statistik tahlil hamda natijalarni umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning obyekti sifatida sport maktabida shug‘ullanuvchi 14–15 yoshli basketbolchilarning o‘quv-mashq jarayoni tanlandi.

Tadqiqotning predmeti esa o‘quv-mashq bosqichidagi basketbolchilarning individual va jamoaviy texnik-taktik harakatlari hamda ularning o‘yin natijadorligiga ta’siri hisoblanadi.

Tadqiqot 2025-yil sentabr oyidan 2026-yil aprel oyigacha bo‘lgan davrda, ya’ni 8 oy davomida olib borildi. Tadqiqotda jami 24 nafar 14–15 yoshli basketbolchi ishtirok etdi. Ishtirokchilar teng sonli ikki guruhga ajratildi: nazorat guruhi (n=12) va tajriba guruhi (n=12). Nazorat guruhi sport maktabining amaldagi o‘quv dasturi asosida mashg‘ulotlarni davom ettirdi. Tajriba guruhida esa individual va jamoaviy texnik-taktik harakatlarni integratsiyalashgan holda rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashg‘ulot metodikasi qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy-metodik asosini basketbol nazariyasi va uslubiyati, sport pedagogikasi, sport mashg‘ulotlari nazariyasi hamda yosh sportchilarni tayyorlash bo‘yicha mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tashkil etdi.

Pedagogik kuzatuv jarayonida basketbolchilarning texnik-taktik faoliyati muallif tomonidan ishlab chiqilgan maxsus kuzatuv varaqalari yordamida baholandi. Kuzatuv varaqasi 20 ta mezondan iborat bo‘lib, ular individual va jamoaviy harakatlar bo‘yicha guruhlashtirildi. Individual harakatlar bloki tarkibiga dribling samaradorligi, uzatma aniqligi, savatga tashlash foizi, 1×1 vaziyatlaridagi muvaffaqiyat, to‘pni nazorat qilish va

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qaror qabul qilish tezligi kabi 10 ta ko‘rsatkich kiritildi. Jamoaviy harakatlar bloki esa assistlar soni, kombinatsion o‘yinlarda ishtirok etish, tezkor hujumlarni tashkil etish, himoyaviy sug‘urta, o‘zaro hamkorlik va jamoaviy taktik harakatlarni aks ettiruvchi 10 ta ko‘rsatkichdan iborat bo‘ldi. Har bir ko‘rsatkich 5 ballik baholash mezoni asosida ekspertlar tomonidan baholandi.

Pedagogik eksperiment davomida tajriba guruhiga individual va jamoaviy harakatlarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlar majmuasi joriy etildi. Mashg‘ulotlar haftasiga 4 marotaba o‘tkazilib, har bir mashg‘ulotning davomiyligi 90 daqiqani tashkil etdi. Mashg‘ulotlarning 35–40 foizi individual texnik harakatlarni rivojlantirishga, 60–65 foizi esa jamoaviy taktik harakatlarni takomillashtirishga yo‘naltirildi.

Mashg‘ulot dasturiga 1×1, 2×2, 3×3 va 5×5 o‘yin vaziyatlari, tezkor hujum mashqlari, kombinatsion hujum elementlari, pozitsion o‘yinlar, himoyadagi o‘zaro hamkorlik mashqlari hamda qaror qabul qilish tezligini rivojlantiruvchi vazifalar kiritildi. Mashqlar yuklamasi yosh sportchilarning funksional imkoniyatlari va tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib bosqichma-bosqich oshirib borildi.

Tadqiqot davomida sportchilarning o‘yin natijadorligi quyidagi ko‘rsatkichlar asosida baholandi: o‘yin davomida to‘plangan ochkolar soni, savatga tashlash aniqligi (%), assistlar soni, to‘p yo‘qotishlar miqdori, samarali hujumlar ulushi (%) hamda jamoaviy kombinatsiyalar samaradorligi.

Olingan ma’lumotlar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, arifmetik o‘rtacha qiymat (M), o‘rtacha kvadratik og‘ish (σ), standart xatolik (m) hamda foiz ko‘rsatkichlari (%) hisoblandi. Nazorat va tajriba guruhlari o‘rtasidagi farqlarning ishonchliligi Studentning t-mezoni yordamida aniqlanib, statistik ahamiyatlilik darajasi $p<0,05$ deb qabul qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Pedagogik eksperimentning dastlabki bosqichida nazorat va tajriba guruhlarining texnik-taktik tayyorgarlik ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Olingan natijalar bo‘yicha guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli farq aniqlanmadi ($p>0,05$), bu esa eksperiment boshlanishida ishtirokchilarning tayyorgarlik darajasi bir-biriga yaqin bo‘lganligini ko‘rsatdi.

Sakkiz oy davomida tajriba guruhida individual va jamoaviy texnik-taktik harakatlarni uyg‘un rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulot metodikasi qo‘llanildi. Nazorat guruhi esa sport maktabining amaldagi o‘quv dasturi asosida mashg‘ulotlarni davom ettirdi. Eksperiment yakunida qayta test sinovlari o‘tkazilib, olingan natijalar qiyosiy tahlil qilindi.

1-jadval

O‘quv-mashq bosqichidagi basketbolchilarning texnik-taktik ko‘rsatkichlari dinamikasi (M±m)

Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi (n=12)	Tajriba guruhi (n=12)	O‘zgarish (%)	p
Savatga tashlash aniqligi (%)	44,3±1,7	54,8±1,5	+23,7	<0,05
Uzatma samaradorligi (%)	68,1±2,0	80,2±1,8	+17,8	<0,05
Driblingdagi yo‘qotishlar (marta)	4,5±0,4	2,9±0,3	−35,6	<0,05
Assistlar soni	9,1±0,8	14,2±0,7	+56,0	<0,01
Samarali hujumlar ulushi (%)	50,4±2,3	65,7±2,1	+30,4	<0,05

1-jadval natijalari tajriba guruhida barcha asosiy texnik-taktik ko‘rsatkichlar bo‘yicha sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilganligini ko‘rsatdi. Savatga tashlash aniqligi 54,8 foizga yetib, nazorat guruhiga nisbatan yuqori natija qayd etdi ($p<0,05$). Uzatma

samaradorligining 80,2 foizga yetishi sportchilarning o‘yin davomida qaror qabul qilish va jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalari rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Driblingdagi yo‘qotishlar sonining 35,6 foizga kamayishi individual texnik tayyorgarlikning sezilarli yaxshilanganidan dalolat beradi. Shu bilan birga assistlar sonining 56 foizga ortishi jamoaviy harakatlar samaradorligi oshganligini tasdiqlaydi. Samarali hujumlar ulushining 65,7 foizga yetishi esa kombinatsion o‘yinlar va tezkor hujumlarning natijadorligi oshganligini ko‘rsatadi.

Individual va jamoaviy harakatlarning o‘yin natijadorligiga ta’sirini aniqlash maqsadida asosiy ko‘rsatkichlarning ulushi tahlil qilindi.

2-jadval

Individual va jamoaviy harakatlarning o‘yin natijadorligiga ta’siri

Ko‘rsatkichlar	Ta’sir ulushi (%)
Savatga tashlash aniqligi	33
Assistlar soni	27
Tezkor hujumlar samaradorligi	18
Uzatma aniqligi	12
Dribling samaradorligi	7
Himoyaviy harakatlar	3

Tahlil natijalariga ko‘ra, savatga tashlash aniqligi o‘yin natijadorligiga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida qayd etildi (33%). Ikkinchi o‘rinda assistlar soni (27%) joylashib, jamoaviy harakatlarning zamonaviy basketboldagi muhim o‘rnini tasdiqladi. Tezkor hujumlar samaradorligi 18 foizlik ulush bilan natijaga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, individual va jamoaviy texnik-taktik harakatlarni alohida emas, balki integratsiyalashgan holda rivojlantirish o‘yin samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, 1×1, 2×2, 3×3 va 5×5 o‘yin vaziyatlariga asoslangan mashqlar sportchilarning texnik mahorati bilan bir

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

qatorda taktik fikrlash, vaziyatni tez baholash hamda jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari basketbol nazariyasi va uslubiyati bo‘yicha mavjud ilmiy qarashlarni tasdiqlab, o‘quv-mashq bosqichidagi basketbolchilar bilan ishlashda individual va jamoaviy harakatlarni uyg‘un rivojlantirishga asoslangan metodik yondashuvning samaradorligini ko‘rsatdi. Tajriba guruhi ko‘rsatkichlarining nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan ishonchli darajada yuqori bo‘lishi ($p<0,05$) ishlab chiqilgan metodikaning amaliy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

XULOSA

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari o‘quv-mashq bosqichidagi basketbolchilarning o‘yin natijadorligi individual va jamoaviy texnik-taktik harakatlarning rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Pedagogik eksperiment davomida qo‘llanilgan integratsiyalashgan mashg‘ulot metodikasi sportchilarning individual texnik mahorati hamda jamoaviy hamkorlik ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilash imkonini berdi.

Tadqiqot yakunida tajriba guruhi basketbolchilarida savatga tashlash aniqligi, uzatma samaradorligi, assistlar soni va samarali hujumlar ulushi bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi, dribling jarayonidagi xatolar soni esa kamaydi. Olingan natijalar individual texnik harakatlarning takomillashuvi jamoaviy o‘yin samaradorligining oshishiga xizmat qilishini tasdiqladi.

Tahlillar natijasida savatga tashlash aniqligi va assistlar soni o‘yin natijadorligiga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, tezkor hujumlar va kombinatsion harakatlarning samarali tashkil etilishi jamoaning umumiy natijadorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishi belgilandi. Bu esa zamonaviy basketbolda individual mahorat va jamoaviy hamkorlikning o‘zaro uzviy bog‘liqligini yana bir bor tasdiqlaydi.

13.00.00. – PEDAGOGIKA FANLARI
JOURNAL.NAMSPI.UZ
ISSN: 2992-9008; UDK: 37

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, unda o‘quv-mashq bosqichidagi basketbolchilarning individual va jamoaviy harakatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik kompleks ravishda o‘rganildi hamda ularning o‘yin natijadorligiga ta’siri ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqot davomida qo‘llanilgan integratsiyalashgan metodika yosh basketbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yondashuv sifatida tavsiya etildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan mashg‘ulot metodikasidan sport maktablari, BO‘SMlar, ixtisoslashtirilgan sport ta’lim muassasalari hamda oliy ta’lim muassasalarida basketbolchilarni tayyorlash jarayonida foydalanish mumkin. Mazkur yondashuv sportchilarning musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish, texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish va sport mahoratini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, o‘quv-mashq bosqichidagi basketbolchilarda individual va jamoaviy texnik-taktik harakatlarni integratsiyalashgan holda rivojlantirish o‘yin natijadorligini oshirishning muhim omili ekanligi ilmiy-pedagogik jihatdan asoslandi hamda eksperimental ravishda tasdiqlandi.

AMALIY TAKLIF VA TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari hamda pedagogik eksperiment davomida olingan ilmiy xulosalarga asoslanib quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. O‘quv-mashq bosqichidagi basketbolchilar bilan mashg‘ulotlarni tashkil etishda individual texnik tayyorgarlik va jamoaviy taktik harakatlarni o‘zaro integratsiyalashgan holda rejalashtirish tavsiya etiladi.
2. Mashg‘ulotlar dasturiga muntazam ravishda 1×1, 2×2, 3×3 va 5×5 o‘yin vaziyatlariga asoslangan mashqlarni kiritish sportchilarning texnik mahorati, taktik fikrlashi va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

3. Savatga tashlash aniqligini oshirish maqsadida turli masofa va murakkablik darajasidagi tashlash mashqlarini bosqichma-bosqich qo‘llash, mashqlarni real o‘yin vaziyatlariga yaqinlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

4. Dribling samaradorligini oshirish uchun qarshilik ostida bajariladigan mashqlar, yuqori tezlikdagi yo‘nalish almashtirish elementlari hamda bosim ostida qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi.

5. Jamoaviy o‘yin samaradorligini oshirish maqsadida assistlar sonini ko‘paytirishga, tezkor hujumlarni tashkil etishga va kombinatsion harakatlarni takomillashtirishga qaratilgan mashqlar ulushini oshirish zarur.

6. O‘quv-mashq jarayonida sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligini baholash uchun maxsus kuzatuv varaqalari, videoanaliz va statistik monitoring vositalaridan muntazam foydalanish tavsiya etiladi.

7. Yosh basketbolchilarning tayyorgarlik darajasini nazorat qilishda savatga tashlash aniqligi, uzatma samaradorligi, assistlar soni, to‘p yo‘qotishlar miqdori va samarali hujumlar ulushi kabi ko‘rsatkichlardan asosiy mezon sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

8. Sport maktablari va BO‘SMlarda basketbol mashg‘ulotlarini rejalashtirishda individual va jamoaviy harakatlarning o‘zaro bog‘liqligini hisobga olgan holda kompleks mashg‘ulot dasturlarini joriy etish tavsiya etiladi.

9. Basketbolchilarni tayyorlash tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, videoanaliz dasturlari hamda raqamli monitoring vositalaridan foydalanish mashg‘ulotlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

10. Kelgusidagi ilmiy tadqiqotlarda turli yosh va malaka guruhlaridagi basketbolchilarda individual hamda jamoaviy harakatlarning o‘yin natijadorligiga ta’sirini chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Mazkur tavsiyalarni amaliyotga joriy etish o‘quv-mashq bosqichidagi basketbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish, musobaqa faoliyati samaradorligini oshirish hamda sport mahoratini yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Platonov V.N. Sistema podgotovki sportsmenov v olimpiyskom sporte. — Kiev: Olimpiyskaya literatura, 2015. — 808 s.
2. Bompa T.O., Buzzichelli C. Periodization: Theory and Methodology of Training. — 6th ed. — Champaign, IL: Human Kinetics, 2019. — 424 p.
3. Ayrapetyans L.R., Godik M.A. Sportivnye igry. — Tashkent: Ibn Sino, 1991. — 320 s.
4. Gomelskiy A.Ya. Basketbol: sekrety masterstva. — Moskva: Fizkultura i sport, 1997. — 224 s.
5. Wissel H. Basketball: Steps to Success. — 3rd ed. — Champaign, IL: Human Kinetics, 2012. — 352 p.
6. Oliver D. Basketball on Paper: Rules and Tools for Performance Analysis. — Washington, DC: Brassey’s Inc., 2004. — 326 p.
7. Krause J., Meyer D., Meyer J. Basketball Skills and Drills. — 3rd ed. — Champaign, IL: Human Kinetics, 2018. — 264 p.
8. Hughes M., Franks I.M. Essentials of Performance Analysis in Sport. — 3rd ed. — London: Routledge, 2015. — 458 p.
9. Isroilov Sh.X. Basketbol nazariyasi va uslubiyati. — Toshkent: O‘zDJTSU, 2021. — 180 b.
10. Martens R. Successful Coaching. — 4th ed. — Champaign, IL: Human Kinetics, 2012. — 440 p.
11. Kerimov F.A. Sport sohasidagi ilmiy tadqiqotlar. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020. — 256 b.